

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4367,2 mlrd.so'mni**, o'sish **11,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **5,7 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **69,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **69,6 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4367,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11,1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 4,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 11,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-oktyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4110,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,1 % ni tashkil etdi.

***2018 yil yanvar-oktyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	10,3	10,7	96,3
Paxta linti, ming tonna	2,8	2,6	105,2
Aroq – ming litr 100 % spirt	872,0	945,0	92,3
Vino, ming litr	1198,0	930,0	128,8
Un, ming tonna	93,8	93,3	100,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	8,2	9,4	86,8



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 182,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,2 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3054,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan 5,7 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 69,9 % ni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1033,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 104,7 % ga o'sdi. Nooziq-ovqatlar va vino-arok mahsulotlari hajmi esa 2020,6 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ga o'sdi.

2017 yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 65,8 % dan 2018 yilning yanvar-oktyabr oyida 66,2 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

Yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




2017 yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 34,2 % dan 2018 yilning yanvar-oktyabr oyida 33,8 % bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulotlarining ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 985,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,2% ni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,5% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 22,6% gacha oshdi.

2017 yil yanvar-oktyabr



2018 yil yanvar-oktyabr




- Viloyatning boshqa korxonalari
- Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 47,5 % ulushini), Uchqo'rg'on (8,9 %), Namangan (9,6 %), To'raqo'rg'on (8,4 %), Uychi tumani (7,0 %), Pop (4,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Yangiqo'rg'on (1,3 %), Chortoq (1,7 %), Norin (2,3 %) , Mingbuloq (2,4 %) va Chust (2,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida (2017 yilning yanvar-oktyabr oyiga nisbatan 114,2 % ga), Pop (118,7 % ga), va Mingbuloq (144,6 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 69,6 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (90,9 %), Namangan (88,6 %) va Chust (75,3) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (28,8 %), Pop (31,3 %) va Uchqo'rg'on (55,7 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 4200 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1992 tasi Namangan shahrida, 315 tasi Chust, 300 tasi Uychi, 286 tasi Namangan, 244 tasi Kosonsoy, 248 tasi To'raqo'rg'on, 164 tasi Chortoq, 147 tasi Uchqo'rg'on, 149 tasi Yangiqo'rg'on, 141 tasi Pop, 144 tasi Norin va 87 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatda 762 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 58,8 % Namangan shahri, Chust, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 noyabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Namangan viloyat statistika boshqarmasining

Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80